

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/6-SON
ILLOVA TO'RPLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

F.R.To'xtasinov, M.P.Azimova

Kartoshka ildizi va uning atrofi tuproqlarida uchraydigan fitonematodalar sistematik tahlili va turlar xilma-xilligi 103

I.I.Zokirov, A.A.Yoqubov

Kuzgi tunlamning qishloq xo'jalik ekinlariga ta'siri va O'zbekistonda samarali kurash choralar 106

B.A.Abduveiyev, I.I.Zokirov

Gelmintlarning uy parrandalari bilan biotsenotik aloqalari 109

T.K.Ortikov, U.B.Shodmonov

Janubiy Farg'ona tuproqlarining mikrobiologik faolligi va unga turli omillarning ta'siri 115

A.A.Ma'rupo

Farg'ona vodiysi Uzunmo'ylov qo'ng'izlarining taksonomik reviziysi va zamonaviy tur tarkibi 118

S.Sh.Axmadjonova

Kolorado qo'ng'izi (Coleoptera, Chrysomelidae)ning ayrim biologik xususiyatlari 122

V.Y.Isaqov, X.V.Qoraboyev

Tuproq va Indigofera tinctoria L. organlarida og'ir metallarning tarqalish va to'planish xususiyatlari 125

GEOGRAFIYA**M.N.Dehqonboyeva, X.A.Abduveiyev**

Yer sig'imi tushunchasidan aholi zichligida foydalanish 132

X.Sh.Djo'rabyeva

Farg'ona vodiysida an'anaviy suvdan foydalanish madaniyatining shakllanishiga ekologo-gyeografik omillarni ta'siri 137

N.O'.Komilova

Xo'jalik yuritishdagi qadimgi tizimning etnoekologik mohiyati 141

A.A.Xamidov

Farg'ona vodiysining landshaftlarini shakllanishiga litogen tuzilish va rel'efning ta'siri 148

QISHHLOQ XO'JALIGI**Q.A.Davronov, D.Q.Ibragimova, R.A.Iminchayev, Sh.A.Kuramatova**

"Avangard start", "Gulliver" "Antikolorad maks" preparatlarini g'o'za parvarishida qo'llash usullari va muddatlari 153

Sh.A.Kuramatova, D.Q.Ibragimova, R.A.Iminchayev

Kungaboqar o'simligiga qo'llanilgan mineral va organik o'g'itlarni uning o'sishi, rivojlanishiga va hosildorligiga ta'siri (Farg'ona viloyati tuproq iqlim sharoitida) 158

Sh.I.Mamatojiyev, M.A.Gaziyev

Sabzavot ekinlari nafaqat oziq – ovqat, balki manzara hamdir 164

M.I.Aktamov, M.T.Isag'aliyev, B.M.Qo'chqorov

Sug'oriladigan o'tloqi saz tuproqlarda suvdan oson eruvchi ionlar dinamikasi 168

R.Djurayev

Urushdan keyingi yillarda chorva ozuqasi muammosi 172

R.Djurayev

Chorvachilik va uning sovet davlati xalq xo'jaligida tutgan o'mni 177

ILMIY AXBOROT**D.O.Turdaliyev**

Maslenitsa bayrami Slavyan madaniyatida ma'jusiylik va xristian an'analarining aksi sifatida 181



UO'K: 94-055.2(575.171)

URUSHDAN KEYINGI YILLARDA CHORVA OZUQASI MUAMMOSI

ПРОБЛЕМА ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЖИВОТНОВОДСТВА ПРОМЫШЛЕННИЕМ В
ПОСЛЕВОЕННЫЕ ГОДЫTHE PROBLEM OF SUPPLYING LIVESTOCK WITH FOOD IN THE POST-WAR
YEARSRavshan Djurayev 

O'zbekiston milliy universiteti dotsenti, Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd)

Annotation

Jahon miqyosida xalq xojaligining turli sohalari, xususan, oziq-ovqat hamda sanoatda xomashyoga bo'lgan talab o'sib bormoqda. Chorvachilik tarmog'i rivojlangan Avstraliya, Kanada, Kuba, Gollandiya, Rossiya kabi davlatlar iqtisodiyotida ham bu soha tayanch hisoblanib, mamlakat eksportining katta ulushini qamrab olganligi sohaga bo'lgan munosabatning ahamiyatini oshirmoqda. Ayni paytda chorvachilik sohasiga etiborning kuchayishi aholini oziq-ovqat bilan ta'minlashga hamda mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga ijobjiy sharoit yaratmoqda. Mazkur jarayonda xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan dasturlarning keng amaliyatga joriy etilayotganligi jamiyat tarraqqiyotining muhim garovi sifatida et'tirof etilmoxda. Tadqiqotning maqsadi ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda O'zbekiston SSRda chorvani ozuqa bilan ta'minlash tarixi va sohada yuz bergan o'zgarishlarni ochib berishdan iborat. Maqola tarixiylik, tizimlilik, xolislik tamoyillari hamda muammoga sivilizatsion yondashuv, qiyosiy va muammoviy – xronologik tahsil usullaridan foydalananilgan xolda yozilgan. Tadqiqotning amaliy natijalarini quyidagilardan iborat siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlarning chorvachilik sohasiga ta'siri tarixshunoslikda ilk bor sovet yillari doirasida o'rganilib, aniqlangan muammolar bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan; O'zbekiston SSRda chorvachilik tarixiga doir arxiv hujjatlari, statistik ma'lumotlar va davriy matbuot materiallarini aniqlash, qiyosiy tahsil qilish asosida hududda mazkur tarmoq tarixini o'rganishning nazariy konseptual asoslari ishlab chiqilgan.

Annotation

В мировом масштабе растет спрос на сырье в различных отраслях национальной экономики, в частности пищевой и промышленности. Тот факт, что этот сектор считается опорой экономики таких стран, как Австралия, Канада, Куба, Голландия, Россия, где развит животноводческий сектор, и охватывает большую долю экспорта страны, повышает значимость отношения к сектору. В настоящий момент возрастающее внимание к животноводческой отрасли создает положительные условия для обеспечения населения продовольствием и развития экономики страны. В этом процессе реализация программ, разработанных международными организациями, признается важной гарантией развития общества. Цель исследования – раскрыть историю кормления скота в Узбекской ССР в годы после Второй мировой войны и изменения, произошедшие в этой области. Статья написана с использованием принципов историчности, системности, объективности, цивилизационного подхода к проблеме, а также методов сравнительного и проблемно-хронологического анализа. Практические результаты исследования заключаются в следующем: в рамках советских лет впервые в историографии изучено влияние политических и экономических изменений на отрасль животноводства, разработаны предложения и рекомендации по выявленным проблемам; На основе выявления и сравнительного анализа архивных документов, статистических данных и материалов периодической печати по истории животноводства в Узбекской ССР разработаны теоретические концептуальные основы изучения истории этой отрасли в регионе.

Abstract

Globally, the demand for raw materials in various sectors of the national economy, in particular, in food and industry, is growing. The fact that this sector is considered the mainstay of the economy of countries such as Australia, Canada, Cuba, Holland, Russia, where the livestock sector is developed, and covers a large share of the country's exports, increases the importance of the attitude towards the sector. At the moment, increasing attention to the livestock sector is creating positive conditions for providing the population with food and for the development of the country's economy. In this process, the implementation of the programs developed by international organizations is recognized as an important guarantee of the development of the society. The purpose of the research is to reveal the history of livestock feeding in the Uzbek SSR in the years after the Second World War and the changes that occurred in the field. The article was written using the principles of historicity, systematicity, impartiality, and the civilizational approach to the problem, as well as the methods of comparative and problem-chronological analysis. The practical results of the research are as follows: the impact of political and economic changes on the livestock sector was studied for the first

QISHLOQ XO'JALIGI

time in historiography within the framework of the Soviet years, proposals and recommendations were developed on the identified problems. On the basis of identification and comparative analysis of archival documents, statistical data and periodical press materials on the history of animal husbandry in the Uzbek SSR, the theoretical conceptual basis for studying the history of this industry in the region has been developed.

Kalit so'zlar: Sovet hokimiyyati, chorvachilik, ikkinchi jahon urushi, xalq xo'jaligi, yilqichilik, qoramollar, yaylovlar, yer ozugasi.

Ключевые слова: Советская власть, животноводство, Великая Отечественная война, народное хозяйство, животноводство, крупный рогатый скот, пастбища, кормовая земля.

Keys words: Soviet power, animal husbandry, World War II, national economy, livestock, cattle, pastures, land fodder.

KIRISH

Sovet hokimiyyati yillarida yaylovlar ahvoli va ulardan foydalanish masalasi sovet organlarining nazoratiga bog'liq edi. O'zbekistonda tabiiy va sun'iy o'rmonlar mavjud bo'lgan. 1945-1950-yillarda O'zbekiston hududi taxminan 17071600 desyatini tashkil etgan. Sug'oriladigan dehqonchilik yerlari taxminan 2000 ming desyatinden iborat bo'lqa, qolgan 15071 600 desyatina yerdan yaylov sifatida foydalanish mumkin bo'lgan. Biroq, mazkur yerkarning ayrim qismlari qumli, toshli va tog'li hududlardan iborat bo'lib, ulardan yaylov sifatida foydalanish mumkin bo'limgan. Mazkur yer-joylar yaylov sifatida foydalanish mumkin deb hisoblangan 15071600 desyatinaning taxminan 10 foizini takshil etgan. Bundan tashqari, mazkur hududlarda dehqonchilik yerlari hisoblangan bag'ora yerkari ham mavjud bo'lgan va ular taxminan 1 000 ming desyatinden iborat bo'lgan. Natijada yaylov sifatida foydalanish mumkin bo'lgan yerkari miqdori 12 564 600 desyatina qolmoqda. Mazkur yaylov miqdorini o'z navbatida hajm va sifat jihatdan bir qancha qismlarga bo'lish mumkin. Mazkur yaylovnинг 10 foizi ya'ni 1256,4 ming desyatina yaxshi sifatlari yaylov bo'lgan hamda har uch desyatina yaylov bir bosh chorvani oziqlantirish uchun yetgan. Qolgan 90 foiz yaylov hududining har 5 desyatini bir bosh chorvani ozuqa bilan ta'minlay olgan. Mazkur jami yaylov hududi umumiyligi 2 697 700 bosh qo'yni o'tlatish uchun yetarli bo'lgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mustaqillik yillarida yaratilgan adabiyotlarda sovet hokimiyatining chorvachilik sohasidagi siyosiy qarashlarini ochib berishga katta ahamiyat berildi. Shuni aytib o'tish kerakki, chorvachilik hanuzgacha alohida mavzu sifatida tadqiq etilmagan bo'lib, bu masala asosan agrar munosabatlarga doir ilmiy ishlarning bir qismi sifatida o'rganib kelingan. Boshqa tomondan, oxirgi yillarda chorvachilikning ba'zi sohalari tadqiqot obyekti sifatida o'rganilgan ishlar vujudga keldi. Shuningdek, mustaqillik yillarida chorvachilikning nazariy bilimlarini o'z ichiga olgan adabiyotlar yuzaga kelgan, biroq bu ishlar O'zbekistonda chorvachilik tarixini yoritishni maqsad qilmagan.

Maqola tarixiylik, tizimlilik, xolislik tamoyillari hamda muammoga sivilizatsion yondashuv, qiyosiy va muammoviy – xronologik tahlil usullaridan foydalanilgan xolda yozilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ozuqa miqdorining ko'pligi yoki kamligi chorva sonlari va ulardan olinadigan chorva mahsulotlari hajmiga ta'sir qilgan [1]. Chorvani yem-xashak va ozuqa bilan ta'minlash chorvachilik tarmog'ining birlamchi muammolaridan sanalgan. O'zbekistonda chorvalarning son va sifat jihatdan o'sishi bevosita yem-xashak bilan bog'liq bo'lgan. Ko'pgina chorvachilik xo'jaliklarida otlar, qoramollar, tuyalar va eshaklar beda poyalari bilan boqilgan. Chorvalarni boqishning mazkur yo'li o'lkada chorvachilikni rivojlantirish uchun yetarli bo'limgan. Xususan, 1948-yildagi O'rta Osiyodagi ozuqa masalalariga bag'ishlangan ma'ruzada, oldingi yillarda bo'lgani kabi joriy 1947-1948-yillarda chorva mollarini ozuqa xomashyosi bilan ta'minlashda katta qiyinchiliklarga duch kelinganligi, ta'minot masalalaridagi uzilishlar, markaziy tashkilotlarning bu boradagi sovuqqonlik orqali harakat qilganligi qayd etib o'tilgan [2].

1950-1955-yillarda O'zbekistonda chorvachilikning ahvoli tabiiy yaylov yerkarning holatiga bog'liq edi [3]. 1948-yildan O'zbekistonda faqatgina tabiiy chorva ozuqalaridan foydalanish yetarli bo'lmay, balki boshqa turdagisi ozuqa ishlab chiqarish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Jumladan, 1950-yillarda chorvachilik bo'yicha mutaxassis sifatida faoliyat yuritgan K. Chukayev paxta-yog' ishlab chiqarishdagi faoliyatda chorva mollari uchun ozuqalar yetishtirishni taklif etadi. K. Chukayev tabiiy yem-xashak va sanoatda ishlab chiqarilgan chorva ozuqalarini almashtirib berish orqali qo'ychilik sohasini rivojlantirish mumkinligini qayd etadi. Jumladan, bunday oziqlantirish usuli qo'yillardan teri

olish jarayonini rivojlantirish mumkin bo'lган. 1948-yilda Samarqanddan 35 kilometr uzoqlikda joylashgan "O'zbekiston Yer ishlari Xalq komissarligi" (Uznarkomzem)ga qarashli chorva tajriba stansiyasida paxtadan olingen ozuqalarni qo'ylargacha berish orqali chorvalarning vazni ortganligi ta'kidlanadi. Shuningdek, paxtadan olingen ozuqalar chorva ozuqasiga bo'lган talabni qondirishga yetarli bo'lган. 1950-yillarda O'rta Osiyo iqtisodiyotida faoliyat yuritgan mutaxassislar chorvachilikni hududda keng ko'lamba yetishtirilayotgan paxta bilan uzviy bog'liqlikda olib borish kerakligini tavsiya qiladi [4].

Chorva mollarini ozuqa bilan ta'minlashning yana bir usuli dehqonchilik yerlarida ozuqa bo'ladijan maxsus ekinlarni yetishtirish hisoblangan [5]. 1940-1950-yillarda dehqonchilik yerlarining aksariyat qismi paxta yetishtirish uchun moslashgan edi. Shu sababli o'sha davr agrar soha mutaxassislar yerlardan almashinib ekish usulidan foydalanish zarurligini qayd etib o'tadi. Ular fikriga ko'ra, uzoq davom etuvchi vegetatsiya davri mavjudligi O'rta Osiyo iqlimi mazkur uslubga mos tushishini anglatgan. Shu bilan birlashtirishda, mazkur mutaxassislar qadimda O'rta Osiyolik dehqonlar mazkur usuldan unumli foydalanganligini hamda 1950-yillarda ham ayrim hududlarda mazkur jarayon davom etayotganligini aytib o'tadi. Xususan, Xorazmda kuzgi ekinlardan keyin bug'doy, arpa va jo'xori ekilgan va ulardan chorvalar uchun qishki vaqtarda "yashil ozuqa" sifatida foydalangan. Andijonda ham qishki ekinlardan keyin ma'lum bir ekinlar ekilgan hamda ular qishda chorvalar uchun yashil xashak sifatida foydalangan. Masalan, kuzgi ekindan keyin aholi dehqonchilik yerlariga jo'xori va sholg'om eggan hamda ulardan chorvalarini oziqlantirish uchun foydalangan[6].

Yana shuni aytib o'tish kerakki, chorvaga ozuqa sifatida ishlatilgan mahsulotlarning ayrimlari chorvalarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lsa, qolganlari faqatgina hayvonlarni to'q tutish uchun foydalangan. Xususan, qamish, tikanli o't, g'o'za poyasi, jo'xori va kuydirilgan paxta sheluxasi kabi chorva ozuqalari chorva mollarini to'q tutish xususiyatiga ega bo'lган, biroq ularning semirishi yoki ko'p sut berishi kabi omillariga ta'siri kam bo'lган[7].

Yana bir chorva ozuqasi mayda o'tlar hisoblangan. O'zbekistonda qadimdan chorvachilik sohasi mahalliy iqlim sharoitlarni hisobga olgan holda rivojlangan. Mazkur jarayonda mayda o'tlar katta ahamiyat kasb etgan. Mazkur chorva ozuqasi kichik hajmda bo'lishi ozuqa sifatida foydalanishda bir oz qiyinchilik tug'dirsa-da, uning O'zbekiston hududining katta qismida mavjud bo'lganligi undan keng foydalanishga imkon yaratgan. Mazkur mayda o'lardan asosan qo'y va echkilarni boqishda foydalangan. 1940-1950-yillarda ko'plab chorva ozuqalari tadqiq etilgan vaqtda mazkur chorva ozuqasi ilmiy jihatdan o'rganilmagan. Faqatgina aholi qadimdan undan qo'ylarini boqish uchun foydalanib kelganligi uchun undan ozuqa sifatida foydalangan[8]. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish kerakki, chorva uchun muhim hisoblangan sershira ozuqalar o'rganilayotgan davrda doimiy ravishda foydalanganligi to'g'risida ma'lumotlar uchratmadik. Xususan, ilmiy adabiyotlarda ildizmeva, kartoshka, xashaki lavlagi va shunga o'xshash ozuqalarni molga berish, bir tomonidan mollarning mahsuldarligini oshirgan bo'lsa, ikkinchidan boshqa xil, qimmatroq yem-xashaklarni tejash imkoniyatini bergen[9]. Mazkur ozuqadan foydalanish asosan 1940-yillardan keyin ommalashgan.

1940-1950-yillarda g'o'zapoyadan qo'ylar va qoramollar uchun ozuqa sifatida foydalanishning samaradorligi tahlil qilinadi. G'o'zapoyani xo'jalikda ishlatishning ikki yo'l borligi: biri undan yoqilg'i sifatida foydalanish bo'lsa, ikkinchisi undan chorva mollar uchun ozuqa sifatida ishlatish bo'lган[10]. Shuningdek, o'sha davr mutaxassislar g'o'zapoyani butun holda chorvalarga berish ularning oshqozoniga salbiy ta'sir qilish mumkinligini aytib, g'o'zapoyani maydalab "paxta uni" sifatida berishni tavsiya qiladi[11]. G'o'zapoyalardan chorva ozuqasi sifatida foydalanish sovet hokimiyatining keyingi yillarda ham saqlanib qolingga edi[12].

Chorva ozuqalar miqdori va sifatini oshirish chorvachilikning rivojlanishining asosiy bo'lagi hisoblangan[13]. 1928-yil 15-oktyabrida O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi (SredAzEKOSO) tomonidan chorva ozuqalariga quyidagicha narxlar belgilangan edi: yem aralashmasi- 20 tiyin; kunjara- 75 tiyin; chigit(3-nav)-75 tiyin. O'z navbatida ushbu chorva ozuqasi mahsulotlarini yuqoridaq markaz belgilagan bahodan chorvachilik fermalari va sovxoziyaliga yetkazib berish umumiyligi hisobda 300.000 rubl miqdoridagi kamomadni keltirib chiqarishi natijasida O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi (SredAzEKOSO)ning ushbu kamomadi O'rta Osiyo respublikalari daromadidan qoplanishi belgilab qo'yildi[14]. 1928-yil 8-oktyabrdan Savdo xalq komissarligi vakili

QISHLOQ XO'JALIGI

(Upolnarkomtorg) 100-sonli qaydnomaga bilan O'rta Osiyo respublikalarida chorva mollari ozuqasi taqsimoti bo'yicha hujjatni imzoladi. Hujjatga ko'ra, 1948-1949-yillarda O'rta Osiyo Respublikalarida 32760 tonna (2.000.000 pud) yem-xashak beriladigan bo'ldi[15].

Ma'lumki, chorvachilik bevosita chorvani oziq-ovqat va yem-xashak bilan ta'minlash masalalariga ham bog'liq edi. Arxiv hujjatlarida 1951-1952-yillarda O'zbekiston yem-xashak tashkilotining instruktori N.P. Ivanov va ushu tashkilotning Qo'ng'iroq tumanidagi kotibi M. Yo'ldoshevlar tomonidan imzolangan akt aks etgan bo'lib, unda qayd etilishicha, tumanidagi shahobchada 60 sentner miqdordagi presslanmagan, 250 sentner hajmdagi presslangan bedapoya tayyorlab qo'yilgan bo'lib, ularni saqlash bilan bog'liq bo'lgan muammolarga duch kelinayotganligi qayd etilgan.

Shuningdek, sohani ish anjomlari bilan ta'minlashda ham juda katta qiyinchiliklarga duch kelinayotganligi arxiv fondlaridagi hujjatlarda o'z ifodasini topgan. Masalan, hujjatlardan birida Farg'ona viloyatidagi bir qancha tumanlar va Samarqand viloyatidagi Xatirchi tumanida somonlarni tashib ketish uchun xaltalarining yetishmasligi qayd etib o'tilgan. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish kerakki, yem-xashakni mollarga yedirishdan oldin tayyorlash mashinalari asosan 1940-yillardan keyin rivojlandi.

Hududlar o'rtasida o'zaro nomutanosib xo'jalik aloqalari natijasida chorvani yem-xashak bilan ta'minlash borasida katta qiyinchiliklarga duch kelinar edi. Chunonchi, Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumanidagi "Oq-qapchig'ay" sovxozi 1932-yilda O'zbekiston Xalq komissarligi, "Osiyo non", "Qo'ychilik uyushmasi" kabi tashkilotlarga telegramma yo'llab, Boysun tumanidan puli o'tkazilgan bo'lishiga qaramasdan somon va arpa mahsulotlari olib kelinmayotganligini bildiradi va bu bo'yicha tegishli choralar ko'rinishini iltimos qilishadi. Ushbu telegammaga javoban, Boysun tumanidan 3000 sentner miqdordagi arpani kechiktirmsandan, Sho'rchi tumanidagi "Oq-qapchig'ay" sovxozi o'tkazish to'g'risida O'zbekiston Xalq komissarligi va "O'zbekiston chorvachilik ittifoqi" tomonidan buyruq beriladi.

XULOSA

O'z navbatida chorva uchun zarur bo'lgan ozuqa mahsulotlarini saqlash uchun yetarli sharoitlarning mavjud emasligi, sovxozi va kolxozlar ta'minot bazalarida saqlanayotgan mahsulotlarning nobud bo'lishiga sabab bo'lmoxda edi. 1945-1951-yillarda yerlarning davlat tamarrufiga o'tkazilishi yaylov yerlarining tanqisligiga olib keldi. Bundan tashqari, avvallari yaylov sifatida foydalangilgan yerlar dehqonchilik yerlariga aylantirilgan. Natijada ayrim hollarda O'zbekiston SSR chorvadorlari o'z chorvalarini Qirg'iziston SSR, Qozog'iston SSR va Turkmaniston SSR hududlaridagi yaylovlarda boqishga majbur bo'lgan. Boshqa tomonidan, chorva ozuqasi bo'lgan talabni qondirish maqsadida sovet hokimiyyati dehqonchilik ekinlaridan olinadigan mahsulotlardan yem-xashak sifatida foydalanishni rejalashtirgan. Masalan, paxta g'o'zapoyasini maydalagan holda chorva mollariga berish amaliyoti aynan o'sha davrda vujudga keldi. Biroq, mazkur turdag'i ozuqalarni tayyorlash bilan ma'lum bir muassasalar shug'ullangan bo'lib, yem-xashakning yetarli bo'lishi o'sha tashkilotlar faoliyatiga bog'liq bo'lib qolgan edi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Хамдамов А. Себестоимость продукции скотоводства и пути ее снижения (На примере колхозов Самаркандской области Узбекской ССР). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Ташкент, 1971. – С.9.
- O'z MA, R.9-fond, 1-ro'yxat, 2525-ish, 29-varaq.
- Насыров У. Методы увеличения производства говядины и создания мясного скотоводства в Узбекистане. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора сельскохозяйственных наук. – Оренбург, 1974. – С.8.
- O'zMA, R.9-fond, 1-ro'yxat, 2525-ish, 29-30-varaqlar.
- Qizil O'zbekiston. – 1926. – 25-dekabr.
- O'zMA, R.9-fond, 1-ro'yxat, 2525-ish, 30-varaq orqasi.
- O'zMA, R.9-fond, 1-ro'yxat, 2525-ish, 30-varaq orqasi.
- O'zMA, R.9-fond, 1-ro'yxat, 2525-ish, 30-31 varaqlar.
- Zokirov A. Chorvachilik ishlarini mexanizatsiyalashning iqtisodiy ahamiyati. – Toshkent, 1961. – В.18-31.
- Правда. – 1929. – 7 ноябрь.
- O'z MA, R.9-fond, 1-ro'yxat, 2525-ish, 31-varaq.

12. Хамдамов А. Себестоимость продукции скотоводства и пути ее снижения (На примере колхозов Самаркандской области Узбекской ССР). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Ташкент, 1971. – С.9.
13. Камбаров М. Пути повышения экономической эффективности производства продукции скотоводства. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Ташкент, 1976. – С.7-9.
14. O'z MA, R.9-fond, 1-го'yxat, 2525-ish, 37-varaq.
15. O'z MA, R.9-fond, 1-го'yxat, 2525-ish, 44-varaq.